O‘ZBEK MILLIY OG‘ZAKI NUTQIDA JOY NOMLARI BILAN BOG‘LIQ FRAZEMALAR TOPOMORFIZMLAR SIFATIDA

Abdullayev Akmal Amirovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
Ismatullayeva Zebo Nurillo qizi
Namangan davlat pedagogika instituti II bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.16780011

АННОТАЦИЯ

Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki nutqida qo‘llaniluvchi joy nomlari bilan bog‘liq frazemalar haqida ma’lumotlar berilgan. Ularni “topomorfizmlar” nomi ostida leksik-semantik, stilistik va lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilish bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birga, “topomorfizm” termini ilmiy-nazariy izohlangan, uning ta’riflari keltirilgan, onomastika sohasidagi transpozitsiyasi haqida fikrlar bildirilgan.

КАЛИТ СЎЗЛАР

morfizm, toponim, onomastika, transformatsiya, frazeologizm, frazema, iboralar.

АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения о фразеологии, связанной с топонимами, используемой в узбекской народной речи. Рассматривается их лексико-семантическое, стилистическое и лингвокультурологическое изучение под названием «топоморфизмы». При этом дается научно-теоретическое обоснование термину «топоморфизм», даются его определения, высказываются соображения о его транспозиции в области ономастики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

морфизм, топоним, ономастика, трансформация, фразеология, фразеологизм, выражения.

ABSTRACT

The article provides information about phraseology related to place names used in

KEYWORDS

morphism, toponym, onomastics, transformation,

Uzbek folk speech. Considerations are made on their lexical-semantic, stylistic and linguocultural study under the name "topomorphisms". At the same time, the term "topomorphism" is scientifically and theoretically explained, its definitions are given, and thoughts are expressed about its transposition in the field of onomastics.

phraseology, phraseology, expressions.

KIRISH. Bugungi kunda milliy tilshunosligimizning ko‘plab soha va yo‘nalishlari qatorida onomastika sohasida ham yangicha lisoniy tafakkur va qarashlar asosida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, bular asosida ilmiy risolalar chop etilmoqda, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2021-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi hamda qator ma’ruzalarida ham milliy nomshunoslik va atamashunoslik masalalariga alohida e’tibor qaratganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Sababi, ushbu masalalar xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezidentimizning: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.” – degan fikrlari, albatta, o‘zbek tilining onomastika sohasiga ham taalluqlidir[1:4].

Xalqimizning milliy-lisoniy manzarasida, nutqiy muloqotida joy nomlari bilan bog‘liq ko‘plab iboralar yaralganki, bunday iboralar bugungi kun zamonaviy milliy lingvistikamizda o‘z tadqiqini kutayotgan masalalardan hisoblanadi. Maqolada umumlashtiruvchi atama sifatida “topomorfizmlar” nomi ostida mana shunday iboralarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yurtimizdagi joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug‘-aymoq nomlarining kelib chiqish

tarixini (etnogeneziyani) hamda geografiyaga oid onomastika (atama)larni o‘rganishda zahmatkash olimlarimizdan Y.G‘.G‘ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, O‘zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan X.T.Zarifov; etnonim va lingvist olimlar — E.Fozilov, M.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urov; geograflardan H.Hasanov, S.Qorayev kabilarning ishlari alohida diqqatga sazovordir.

Dunyo va milliy tilshunoslikda tilning frazeologik sathiga tegishli milliy-madaniy unsurlarga nisbatan antroposentrik ilmiy yondashuvlar asosida bir qator e’tiborga molik tadqiqotlar V.Teliya, V.Maslova, A.Vierzbicka, J.Lakoff, A.Nasisione, M.Xoliqova, N.Mahmudov, A.Mamatov, B.Yoldoshev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda frazemalarning leksik-semantik va uslubiy jihatlari, nutqiy muloqotda ularning o‘rni ochib berilgan. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida, xususan, milliy onomastikada joy nomlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan iboralarni olamning lisoniy manzarasida milliy-madaniy dunyoqarashning frazeologik sathdagi tadqiqi sifatida to‘laligicha o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Bu esa toponimik olam idrokining frazeologizmlarda ifodalanishi va ularni talqin etish bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni monografik asosda tadqiq etish zaruriyati mavjudligini tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqib, maqolada joy nomlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan frazemalarni “topomorfizmlar” atamasi ostida ularning milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish va tahlil etish maqsad qilib qo‘yildi. Shu bilan birga, “topomorfizm” atamasi, uning etimologiyasi, qo‘llanish doirasi va ushbu atamaning onomastikadagi semantik transformatsiyasi haqida ham ma’lumot berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Toponimlarni hamda ular bilan bog‘liq frazemalarni sotsiolingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil etish beixtiyor ularning ijtimoiy-tarixiy va sotsial-madaniy asoslari tomon yetaklaydi. Masalan, etnotoponimlar, antropotoponimlar, ijtimoiy voqea-hodisalar bilan bog‘liq joy nomlari – bular hammasi jamiyatda turli vaqtlarda ro‘y bergan har xil holatlar tufayli ijtimoiy hayotning in’ikosi sifatida yuzaga keladi. Shu sababli toponimlarni tarixiylikning bir chizig‘ida – sinxron kesmada hamda joy nomlari taraqqiyotining boshlanishidan davomiyligi asosida diaxronik usullar bilan o‘rganiladi. Bulardan ikkinchisi, ya’ni diaxronik yondashuv tarixiy jarayon nuqtayi nazaridan qiziqroq va samaraliroq bo‘ladi. Toponimiya amaliy mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy tarixiy hodisadir. Shunga ko‘ra, toponimiyani tarixiy material sifatida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Boshqa jihatdan toponimiya so‘z birliklari bilan ish ko‘rgani sababli tilshunoslik uchun ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Toponimiya shunchaki leksik birliklar yig’indisi emas, balki ekstralingvistik omillar yig’indisi hamdir. Toponimiyada ijtimoiy hayot, madaniy jarayonlar, turli xil siyosiy vaziyatlar, bir

so‘z bilan aytganda ijtimoiy (kollektiv) — jamiyat hayotining barcha sohalari aks etishi mumkin. Masalaning bu tomoni toponimlarda etnik jarayonlar, iqtisodiy munosabatlar, ma’lum ijtimoiy etnomadaniy aloqalar, tillar ta’sirdoshligi va boshqa ko‘plab xususiyatlar mujassamlashadi. Toponimiyani geografiya, tilshunoslik va tarixning sintezi deb qarovchilar ham bor. Bunday qarash toponimiyani tadqiq qilishda metodologik va metodik yondashuvni belgilashga yordam beradi. Ya’ni toponimika tarkibida yuqorida sanalgan yo‘nalishlarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan atamalik xususiyati bilan birga atrofdagi obyektlarga nisbatan atama yasashning o‘ziga xos xususiyatlari birlashadi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, maqolada onomastika sohasidagi tadqiqotlar uchun asosiy metodlardan hisoblangan lisoniy tavsiflash, leksik-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik, statistik, areal tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy termin sifatida “morfizm” atamasi matematika fanida toifalar nazariyasidagi tushuncha bo‘lib, “ikki obyekt o‘rtasidagi strukturani saqlaydigan xaritalash” tushunchasini umumlashtiradi[7]. Yana bir ta’rifga ko‘ra, “Morfizm bu – mavhum kategoriyadagi ikkita obyekt orasidagi xarita.”[8]. Lug‘atlarda ushbu atamaga: “Morfizm kategoriya nazariyasi atamasi bo‘lib, to‘plamlar orasidagi xaritalash vazifasini bajaradigan toifa elementlarini belgilash uchun ishlatiladi.”– degan ta’rif ham berilgan[2,3]. Ushbu ta’rif biz maqolamizda yoritmoqchi bo‘lgan fikr-mulohazalarning mazmunini ifodalashda ochqich kalit vazifasini bajara oladi, deb o‘ylaymiz. Sababi, “topomorfizm” atamasini “to‘plamlar orasidagi xaritalash vazifasini bajaradigan” termin sifatida qo‘llashni nazarda tutganmiz. Vikipediyada ushbu terminning mazmun-mohiyati kengroq tarzda quyidagicha tavsiflangan:

“Matematikada morfizm kategoriyalar nazariyasi tushunchasi bo‘lib, algebraik tuzilmalar orasidagi gomomorfizm, to‘plamdan boshqa to‘plamga o‘tadigan funksiyalar va topologik bo‘shliqlar orasidagi uzluksiz funksiyalar kabi strukturani saqlovchi xaritalarni umumlashtiradi. Morfizmlarning ko‘p misollari strukturani saqlaydigan xaritalar bo‘lsa-da, morfizmlar xarita bo‘lishi shart emas, lekin ular funksiya tarkibiga o‘xshash tarzda tuzilishi mumkin. Morfizmlar va obyektlar kategoriyaning tarkibiy qismidir. Xaritalar yoki o‘qlar deb ham ataladigan morfizmlar morfizmning manbayi va maqsadi deb ataladigan ikkita obyektni bog‘laydi. Agar birinchi morfizmning maqsadi ikkinchi morfizmning manbaiga teng bo‘lsa, aniqlanadigan toifa morfizmlari ustida kompozitsion deb ataladigan qisman operatsiya mavjud. Morfizmlar tarkibi o‘zini funksiya tarkibiga o‘xshatadi (kompozitsiyaning aniqlanganda assotsiativligi va har bir obyekt uchun o‘ziga xoslik morfizmining mavjudligi). Morfizmlar va toifalar zamonaviy matematikaning ko‘p qismida takrorlanadi. Dastlab ular gomologik algebra va

algebraik topologiya uchun kiritilgan. Ular Grotendieck sxemalari nazariyasining asosiy vositalariga, algebraik sonlar nazariyasiga ham tegishli bo‘lgan algebraik geometriyaning umumlashtirilishiga tegishli.”[9].

“Morfizm” atamasining asli o‘zagi yunoncha ikki shakl (asos va qo‘shimcha)ning birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, hozirgi istilohda *-morfizm (-morphism*), ya’ni “shakl, shakl yoki tuzilish holati” ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha sifatida ishlatiladi.

So‘z yasalishida quyidagi ikki shaklning kombinatsiyasidan kelib chiqqan: birinchisi *-morphus* (o‘zagi yunoncha *-morphos*), ya’ni “shakl (bir narsaning) shakliga ega bo‘lish” degan ma’noni anglatadi (etimologiyasi “shakl” degan ma’noni anglatuvchi yunoncha morphḗ so‘zidan kelib chiqqan); ikkinchisi *-izm* qo‘shimchasi (yunoncha *-ismos*) bo‘lib, holat yoki holat otlarini hosil qilihda ishlatiladi. Uning hozirgi ingliz tilida qo‘llanuvchi *-morphic* va *-morphous* shakllari quyidagi bir qancha fan sohalariga oid terminlarni hosil qilishda ishlatilgan: *avtomorfizm, endomorfizm, monomorfizm, bimorfizm, epimorfizm, skevomorfizm, neomorfizm, glassmorfizm, skvirklmorfizm, minimorfizm, gomomorfizm, izomorfizm, polimorfizm, allomorfizm, geromorfizm, kariomorfizm, paramorfizm, reomorfizm, trimorfizm*[10].

Shunday qilib, “topomorfizm” atamasi uchta yunoncha morfema, ya’ni *τόπος* – joy, *morphḗ* – shakl hamda holat yoki holat otlarini hosil qilihda ishlatiladigan *-ism* qo‘shimchasining birikuvidan hosil bo‘lgan ilmiy termindir.

Tilshunoslikda so‘zning shakl jihatdan o‘zgarmasdan, ma’no yoki uslubiy xususiyat jihatidan yangi funksiyada qo‘llanilishi transpozitsiya deb ataladi. Transpozitsiya (*lot. transpositio – ko‘chirish*) bu — til birligining grammatik shakli o‘zgarmasdan, uning funksional, stilistik yoki semantik jihatdan o‘zgarishidir. Bu hodisa metafora, metonimiya, ma’no ko‘chishi, terminlashuv va uslubiy o‘zgarish holatlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu hodisa, ayniqsa, leksik-semantik, sintaktik, stilistik va terminologik sohalarda ko‘p uchraydi. Transpozitsiya orqali til birliklari kontekst asosida yangi ma’no va vazifaga ega bo‘ladi. Keltirilgan qoidaga asosan, “topomorfizm” atamasi matematika, biologiya va geologiya sohalaridan tashqari onomastikada ham joy nomlari bilan aloqador frazemalarni bir nom ostida birlashtirish maqsadida qo‘llanilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda frazeologizm (ibora)larga nisbatan “Ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi odatda bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror (turg‘un) birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi.”– deya ta’rif berilgan[4:113]. Ularning tildagi asosiy vazifasi nutqqa qo‘shimcha hissiy-emotsional va uslubiy bo‘yoq berish va uning ta’sirchanligini oshirishdan iboratdir.

Xalqimiz og‘zaki nutqida *“Tentakka To‘ytepa bir qadam”, “Onangni Uchqo‘rg‘ondan topasan”, “Siyob bilan Qoradaryoning farqini bilmaydi”, “Bo‘yi Buxoroning minorasi”* kabi ko‘plab frazemalar paydo bo‘lgan. Bunday iboralarni xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlarda ham keng qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Professor I. Yormatov ba’zi iboralar o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq etnotoponimlar ta’sirida paydo bo‘lganligini “*Bu nomlarning birontasi ham bekorga qo‘yilmagan bo‘lib, mazkur urug‘larga mansub kishilarning mavqei, mashg‘uloti, fe’li-ho‘yi yana boshqa xususiyatlari bilan bog‘liq. Ularni izohlaydigan ayrim iboralar xalqning jonli nutqida hozir ham qo‘llaniladi. Masalan, “Yomonning kuchi yapaloqqa yetibdi” iborasi yapaloq urug‘i vakillarinig ozchiligi va quvvatsizligini anglatsa, “Jaloyirga jar chaqirma” iborasi, aksincha, jaloyirlarning son jihatidan ko‘p ekanligini yoki “Jaloyirda qo‘y ko‘p, jong‘ozida o‘y ko‘p” iborasi jaloyirlar asosan qo‘ychilik bilan, jong‘ozi urug‘ining vakillari esa hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlarini bildiradi.*”– deya ta’riflaydi[5:31]. Tadqiqotchi S. Xudoyorova o‘zining “Ingliz va o‘zbek toponimik frazeologik birliklari: lingvomadaniy va tarixiy jihatlari” nomli maqolasida *“Beva xotinga Buxorodan it huradi”, “Eshonbozorda it o‘lsa “yigirma”sidan quruq qolmaydi”, “Ahmoqqa Quva bir tosh”, “Amerika ochmoq”, “Xitoy devori”, “Turkistonda qo‘y bir so’m, kela-kela o‘n bir so‘m”, “tokni qirqmasang, Qashqarga yetadi”, “Gap desang qop-qop, ish desang Ashtarxondan top”, “Yonida bir puli yo‘q G‘irvonga hokim”* kabi frazemalarning ma’nosini ingliz tilidagi bir qator keng qo‘llanuvchi mazmunan yaqin frazemalar bilan solishtirib izohlagan[6]. Biz ham ushbu maqolada joy nomlari bilan bog‘liq quyidagi bir qator frazemalarning konnotativ ma’no-mazmunini izohlashga harakat qildik:

“Tuyatortarning suvini ichgan” – ushbu ibora bugungi kunda Jizzax viloyatining Baxmal tumani aholisi og‘zaki nutqida qo‘llaniladi. Mazmuniga ko‘ra, “Baxmal vohasida voyaga yetgan” degan ma’noni anglatadi. Manbalarga ko‘ra, Tuyatortar kanali – Zarafshon daryosidan chiqarilgan qadimgi kanal. Mirzacho‘lni sug‘orish uchun qazilgan dastlabki kanallardan biri. Zarafshon daryosining suvini Sangzor daryosiga quyadi. Zarafshondagi “Birinchi May” to‘g‘onidan boshlanadi. Eski Tuyatortar kanali milod boshlarida qazilgan, VI-VIII asrlarda o‘zaro urushlar natijasida va arablar istilosi davrida vayron bo‘lgan. XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon II davrida qayta tiklangan va keyinchalik Sirdaryo (Karay va Mirzarabot)gacha yetkazilgan. 1912-yilda Samarqand general-gubernatori tomonidan qisman qayta tiklangan. Sho‘rolar davrida kanal qayta qazildi. Uzunligi 108,2 km, suv o‘tkazish imkoniyati 50 m^3/sek. Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi 34 ming gektardan dan ortiq ekin maydonlari sug‘oriladi. 1987-yilda kanal trassasida Qorovultepa suv ombori qurilgan. Hozirgi kunda Tuyatortar kanalining

chuqurligi 2-3 m, kengligi 7-8 m. Kanal suvi Bahor va yoz faslida loyqalashib, katta sig‘imdagi suvni hosil qiladi, kuz va qish fasliga kelib suv hajmi kamayadi va tiniy boshlaydi. Shunnigdek, ushbu kanal Baxmal tumanidagi bir qancha qishloqlarning, xususan Do‘smat, Gulbuloq MFY, Changal, Shodmon MFY, Alami MFY kabi qishloqlar uchun asosiy sug‘orish manbayi bo‘lib xizmat qiladi[11].

“Lamakinning o‘risiday” – ushbu ibora Jizzax viloyati Zarbdor tumani aholisining og‘zaki nutqiga xos bo‘lib, sariq tusli insonlarni hazil-mazax qilish ma’nosida qo‘llaniladi. Iboraning paydo bo‘lish tarixiy etimologiyasiga ko‘ra, Chor Rossiyasi O‘rta Osiyo hududiga temir yo‘l liniyasini qurishda ma’lum masofalarga temir yo‘l stansiyalarini qurgan va ushbu stansiyalarni Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishida “jonbozlik” ko‘rsatgan Andreyev, Lopatkin, Kuropatkin kabi generallari nomi bilan atagan. Hozirgi Zarbdor tumani hududida qurilgan shunday stansiyaga general Lomakin nomi berilgan va ushbu stansiyada ishlash uchun rus millatiga mansub temir yo‘l sohasidagi mutaxassislarni ko‘chirib keltirgan. Mahalliy aholi ularning sap-sariq tusiga metaforik tarzda o‘zlarining aholisi orasida ham sariq rangda tug‘ilgan insonlarga nisbatan hazil tarzida ushbu iborani qo‘llagan.

“Toshkent non shahri” – xalqimiz tilida keng ommalashgan ushbu iboraning ma’nosi “Toshkentga borsang, och qolmaysan” tarzida ifodalanadi. Ushbu iboraning ham o‘z tarixi bor. Sobiq Sho‘rolar davrining dastlabki yillarida, yanayam aniqrog‘i, 1920-1922- yillarda Volgabo‘yida ocharchililk bo‘lib, ko‘plab aholi qirilib ketadi. O‘sha davrda aholining biroz qismi poyezdlarda Toshkentga jon saqlash uchun ko‘chib kelishadi. Bu haqda Aleksey Neverov “Toshkent – non shahri” asarini yozgan. Ushbu asar asosida 1968-yilda taniqli kinorejissyor Shuhrat Abbosov kino ishlagan. Ushbu asarda Toshkentga: “U yerda non bo‘g‘zinggacha ko‘p, O‘zbekiston naq jannatning o‘zi emish.”– deya ta’rif beriladi. Asarga ko‘ra odamlar ochlikni yengish, o‘lim ustidan g‘alaba qozonish uchun O‘zbekistonga – Toshkentga intilganlar. Toshkent timsolida xaloskor bir mamlakatni tasavvur etganlar.

“Sangzorning suviday ters” – Jizzaxliklar tilida ommalashgan ushbu ibora o‘ta qaysar, o‘z aytganidan qaytmaydigan, bir gap aytilsa, teskarisini qiladigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu iboraning paydo bo‘lish motivi Sangzor daryosining teskari yo‘nalishda oqishi bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, *Mirzacho‘lning qovuniday, Tentaksoyning suvini ichgan, Toshloqning toshi tekkan, Xayrobodning boyiga o‘xshab, Saroylikning arag‘iday, Bekobodning shamoliga uchramoq, Qo‘qonning shamoliday tez, Chinozning balig‘iday, Haqiqat Toshkentga yaqin, Toshkent haqiqati, Yallamaning muzini yalagan, Chiroqchining jiziday, Toshkentning qurug‘i, Achavotning lo‘lisiga o‘xshab* kabi ko‘plab iboralar ham borki, ushbu frazemalar o‘zining semantikasida o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan joy nomlari bilan bog‘liq bir qancha iboralar haqida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarni berishni lozim topdik:

- xalqimiz og‘zaki nutqida mavjud bo‘lgan joy nomlari bilan bog‘liq iboralarni “topomorfizmlar” nomi ostida to‘plash hamda ularning mazmunini leksik-semantik, uslubiy va lingvomadaniy jihatdan tavsiflash;

- Urxun-Enasoy, Irq bitigi kabi turkiy xalqlarning bebaho yodgorliklarini sinchiklab o‘rganish va ushbu bitiglardagi joy nomlari bilan bog‘liq iboralarni aniqlash;

- “Qisasi Rabg‘uziy”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” asarlarida qo‘llanilgan joy nomlari bilan bog‘liq iboralarni aniqlash:

- Mumtoz adabiyotimizda ishlatilgan “Xitoy xo‘blari” (Lutfiy), “Lubati Chin” (Navoiy), “Xo‘tan ohusi” (Xorazmiy), “Ammamizning erlaridur Nurato” (Muqimiy) kabi frazemalarni aniqlash va to‘plash;

- “O‘zbek xalq og‘zaki va badiiy ijodida qo‘llanilgan topomorfizmlar lug‘ati”ni tayyorlash va chop etish lozim bo‘ladi. Sababi topomorfizmlar ham lingvokulturema sifatida o‘zining mazmunida xalqimiz urf-odati, toponimik dunyoqarashi, og‘zaki muloqotdagi hazil-mutoyiba singari bir qator ekstralingvistik xususiyatlarni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – 36 б.
2. Математика. Большой энциклопедический словарь /Гл. ред. Ю.В. Прохоров. 3-е изд. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 848 с.
3. Кондаков Н.И. Логический словарь - М.: АН СССР, Наука, 1971. - 656 с.
4. N.UIuqov. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2016. – 192 bet.
5. Ёрматов И. Оҳангарон ўзбекларининг этник хусусиятлари ва оғзаки ижоди. – Тошкент: Navro‘z, 2013. – 117 б.
6. Safura, T.X. English and Uzbek Toponymic Phraseological Units: Linguocultural and Historical Aspects // International Journal of Linguistics, Literature and Culture Available online at https://sloap.org/journals/index.php/ijllc/ Vol. 7, No. 4, July 2021, pages: 201-208 ISSN: 2455-8028 https://doi.org/10.21744/ijllc.v7n4.1426.

INTERNET MANBALARI

1. https://cyclowiki.org/wiki/%D0%9C%D0%BE%D1%80%D1%84%D0%B8%D0%B7%D0%BC#cite_note-1
2. https://mathworld.wolfram.com/Morphism.html
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Morphism
4. 10.https://cyclowiki.org/wiki/%D0%9C%D0%BE%D1%80%D1%84%D0%B8%D0%B7%D0%BC#cite_note-3
5. 11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eski_Tuyatortar_kanali